

3-4-SINFDA “SO‘ROQ GAPLAR” MAVZUSINI O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLAR

Mamurjonova Shukrona Umidjon qizi

muhamadalimirzoazizov@gmail.com

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada so‘roq gaplar haqida ma’lumot va uning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va ularni qaysi usullar bilan osonroq o‘rgatishimiz yuzasidan bir qancha tavsiyalar berib o‘tilgan. Yangi va zamонавиy metodlar asosida kitobdagi mashqlar ishlab chiqildi.

Abstract: In this article, information about interrogative sentences and its place in our social life, as well as a number of recommendations on how to teach them more easily, were given. The exercises in the book were developed based on new and modern methods.

Аннотация: В этой статье представлена информация о вопросительных предложениях и их роли в нашей социальной жизни, а также некоторые рекомендации о том, как их легче учить. Упражнения в книге разработаны на основе новых и современных методов.

Kalit so‘zlar: ona tili, so‘roq gap, savol, ma’lumot to‘plash, ijodkorlik, sinkveyn, lingvistik yo‘qlama, bozoringizni bersin, taqiqlanga gap, g‘olibdan so‘rang.

Keywords: native language, question, question, information gathering, creativity, syncretism, linguistic research, let your market, taboo, ask the winner.

Ключевые слова: родной язык, вопрос, вопрос, сбор информации, творчество, синкретизм, лингвистическое исследование, дайте свой рынок, taboo, спросите победителя.

Ona tilini o‘rganishda so‘roqlar muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular nima ekanligini, ulardan qanday foydalanishni va suhbatdagi ahamiyatini tushunish, o‘quvchining ona tilini bilish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ona tilida savollarni shakllantirish uchun so‘roqlardan foydalaniladi. Ular bizga ma’lumot to‘plashda shubhalarni aniqlashda va suhbatlashish jarayonida yordam beradi. So‘roq gaplar faqat savol berish vositasi emas, ular ham tanqidiy fikrlash va ijodkorlikning muhim elementlari hisoblanadi. Ushbu gaplar bolalarning qiziqishini kuchaytirishga va tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ular izlanish muhitini yaratadi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Aslini olganda, ular savol va tushunishning asosidir. So‘roqlarni o‘rgatish qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi kerak. Masalan, o‘quvchilardan so‘rang va javob bering. Bunda so‘roq so‘zlarni muntazam ravishda o‘quvchilar bilan kundalik suhbatlar jarayoniga bog‘lash kerak. Biz ularga savol berishimiz va javob berishga undashimiz kerak. O‘quvchilarimizga biz foydalanadigan so‘roq so‘z turiga qarab narsalarni topishi yoki savollarga javob berishi kerak bo‘lgan qiziqarli o‘yin yaratishimiz kerak. Masalan, “Bu xonada qizil rangda nima bor?” O‘quvchilarga shunga o‘xhash savollarni berish, muntazam mashq qilish mahoratning kalitidir. O‘quvchilarni kundalik faoliyati, sevimli kitoblari yoki qiziqarli mavzulari haqida so‘roq gaplar tuzishga o‘rgatish mavzuni tushunishga yordam beradi. Bu takroriy mashqlar nafaqat ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini

oshiradi, balki til tuzilishi haqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi. Demak, biz quyida mavzuga oid bir qancha tajribalarni o‘tkazib ko‘rdik. So‘roq gap mavzusini o‘quvchiga o‘rgatishda quyidagicha metodlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Samarali metodlardan biri “Sinkveyn” metodidir. Bu metoddan ko‘zlangan asosiy maqsad savol berish malakasini o‘quvchida tarbiyalash va mavzuni to‘liq tushunib uning asosiy qismlarini belgilashdir. O‘quvchi o‘zi tushungan narsadangina savol tuzishi mumkin, shundagina savol aniq va tushunarli bo‘ladi. Masalan, 2-sinf sinf soati mavzusiga “Onalar uyimiz charog‘boni” mavzusi berilgan. Bu mavzuga oid matn o‘qib berilgandan so‘ng o‘quvchilar matndagi asosiy so‘zni topishlari kerak bo‘ldi va bu so‘z “ona” so‘zidir. Shu so‘zga quyidagicha sinkveyn yaratdik:

1. Kim?-ona
2. Qanday?-mehribon, oqila
3. Nima qiladi?-ovqat tayyorlaydi, kir yuvadi, dars tayyorlashga yordam beradi
4. Onani kimga o‘xshatish mumkin?-Onamiz uyimizning go‘zal farishtasi
5. Onangizni yana qanday nom bilan erkalaysiz?-oyijon, jannatim, validam, farishtam, charog‘bonim. Bu metoddan shu usulda foydalandim.

Endigi metodimiz “Lingvistik yo‘qlama” deb nomlanadi. Bu metoddan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni yo‘qlama qilish jarayonida qisqa savol-javob o‘tkazib, o‘tilgan mavzularni takrorlash orqali dars jarayoniga kirishlariga yordam berishdir. Masalan, Mamurjonova Shukrona - Gap deb nimaga aytildi?

Askarova Nigina - Gapning oxiriga qanday tinish belgilari qo‘yiladi?

Abduxalilova Mohinur - Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari nechta?

Mamajonova Mahliyo - Darak gap deb qanday gaplarga aytildi?

Mamurov Samiriddin - So‘roq gaplarga misol keltiring.

Navbatdagi metodimiz “Bozoringizni bersin” deb nomlanadi. Bu metodni o‘tkazishda bizga turli xildagi narsalarning rasmlari kerak bo‘ladi. Chiqarib olgan mahsulotlarimiz rasmlarini doskaga yoki savatchaga solib qo‘yamiz va ularga uch, to‘rt va besh raqamlarini qo‘yamiz. Bular baho bo‘ladi. O‘quvchilar doskaga chiqadi va “men besh baho olmoqchiman” degan o‘quvchiga besh baho ortidagi savol beriladi. Albatta, tuzilgan savollar besh bahoga yarasha, yoki uch bahoga yoki to‘rt bahoga yarasha bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘z o‘ziga to‘g‘ri baho berishni, og‘izakini nutqini va o‘qib tushunish ko‘nikmasini egallaydilar.

Yana bir qiziqarli metodimiz “Taqiqlanga gap” metodidir. “Taqiqlangan so‘z” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

- ✓ qanday so‘zlarni takrorlash taqiqlangan ekanligini o‘quvchilarga tushuntirish;
- ✓ javob berayotgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish; Bunda barakalla, ofarin, qoyil, ajoyib, zo'r , rahmat kattakon, boringizga shukur, yaxshi, tasanno kabi so'zlar bilan bolalarning fikrlarini, bajargan ish va harakatlarini rag'batlash, maqsadga muvofiq. Hattoki, to'liq fikr aytmasalar ham, rag'batlang.

Bunda masalan, biz so‘roq gap mavzusini o‘tganimizdan o‘quvchilarni doskaga chiqaramiz va so‘roq gapdan tashqari boshqa gaplardan foydalanmasligini aytamiz. Agar o‘quvchi shu gapdan foydalansa o‘yindan chiqariladi.

Masalan, 3-sinf I qism 70-mashqda quyidagicha topshiriq berilgan:

Qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini tanlab, gaplarni so‘roq gapga aylantiring.

1. Tal’at rubob...(chaladi, chaladimi, chalgin)?
2. Bilim baxt...(keltiradimi, keltiradi, keltirsin)?

3. Oltin olma dou ol. Duo oltin...(emasmi,emasmi,emas)?
4. Aziza gullarga suv...(quydi,quysin, quydimi)?
5. Uyga...(qaytaylik,qaytamiz,qaytamizmi)?
6. Buvingga ko‘zoynakni olib borib...(bergin,berdingmi,berdi)?

Ushbu metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalar shakllantiriladi.

“G‘olibdan so‘rang” bu metodda o‘quvchilarga kitobdagи biron bir mashq beriladida kim birinchi bajarish sharti qo‘yiladi. Kim birinchi bajarsa o‘sha o‘quvchini doska yoniga taklif qilamiz. Shu o‘quvchiga mashqni bajargan barcha o‘quvchilar o‘z savollarini shu o‘quvchiga berishadi. O‘qituvchilik shu o‘quvchiga o‘tadi. Bu o‘quvchiga o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishiga yordam beradi. Masalan, 1-sinf 1-qism 30-mavzuda “Gap oxiriga qo‘yiladigan tinish belgilar” mavzusi 2-mashqda matn berilgan. Matn “Jala” haqida.

Jala

Biz dalaga yetib kelgnimizda ob-havo o‘zgara boshladi to‘satdan kuchli shamol ko‘tarildi birdan ulkab qora bulut osmonni qoplab, hamma yoq qorong’I bo‘lib qoldi qayoqqa qochish kerakqayerga berkinish kerak mana hozir jala quyadi Gaplarning chegarasini aniqlab, kerakli tinish belgilarini qo‘ying. Nima uchun aynan shu tinish belgisini qo‘yagningizni izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ona tili. 1-sinf I qism. D.Sh.Yuldasheva. Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun darslik.Novda.Toshkent-2023
2. Ona tili.3-sinf I qism.M.E.Tirova.Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun darslik.Novda.Toshkent-2023
3. [hht://www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz);
4. [hht://www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz);